

№ 01 - sonli pudrat shartnomasi

Arnasoy tuman.

«16» mart 2022 yil

Arnasoy tumani Xalq talimi bo'limi (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi mudiri M.Nizomov va «SHOXRUZ 555» MCHJ keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi korxonalar rahbari Bobobekov Mahramqul Ibragimovichlar mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. Shartnoma predmeti

1.1. Pudratchi o'z zimmasiga buyurtmachining topshirig'iga ko'ra mazkur shartnomaning 1.2.-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ishlarning natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Pudratchi keyingi o'rinlarda "Ishlar" deb ataladigan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini oladi:

Arnasoy tumani xalq talimi bo'limiga qarashli 14-sonli o'rta talim maktabni joriy ta'mirlash ishlarini bajarish.

1.3. Pudratchi ishlarni o'zining materiallaridan, o'zining asbob-uskunasidan va o'zining instrumentlari bilan bajaradi.

1.4. Ishlarni bajarish muddati: Buyurtmachi tomonidan dastlabki 30 foiz avans mablag'i ajratilgan kundan boshlab 10 kun ichida amalga oshiradi, qolgan 70 foizni bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma imzolagandan so'ng 10 bank ish kun ichida qabul qilish dalolatnomasi, xisob-faktura v.b asosida to'laydi.

1.4.1. Ishlar buyurtmachi yoki uning vakolatli vakili tomonidan ishlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolagandan keyin bajarilgan deb hisoblanadi.

2. Majburiyatlarning bajarilishi muddati

2.1. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma umumiy qiymatining 30 foizi miqdorida bunak to'lovlarini amalga oshiradi. Ishlarni qabul qilishda aniqlangan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish ishlari to'liq hajmda bajarilgandan so'ng buyurtmachiga bajargan ishlar uchun oxirgi, uzil-kesil, hisob-kitobni amalga oshiradi.

2.2. Mazkur shartnoma G'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tgandan so'ng kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr gacha amal qiladi.

3. Taraflarning huquq va majburiyatlari

3.1. Pudratchining majburiyatlari:

3.1.1. Ishlarni lozim bo'lgan sifatda bajarish.

3.1.2. Ishlarni mazkur shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan muddatda bajarish.

3.1.3. Ob'ektga loyixaga binoan zarur bo'lgan materiallarni, konstruksiyalarni, butlovchi ashyolarni etkazib berish va ularni qabul qilish, tushirish, taxlash hamda saqlashni amalga oshirishi;

3.1.4. Ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinadigan maxsus tashkilotlar bilan subpudrat shartnomalarini tuzgani to'g'risida buyurtmachiga axborot berishi va u tomondan ishlarning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta'minlashi;

3.1.5. Ishlarning natijasini buyurtmachiga topshirish.

3.1.6. Agar Pudratchi ishlarni bajarish jarayonida shartnoma shartlaridan ishlarning sifatini yomonlashtirishga olib keladigan chetga chiqishga yo'l qo'ygan bo'lsa, buyurtmachining talabiga binoan aniqlangan barcha kamchiliklarni 10 kun ichida tekinga bartaraf etish.

3.1.7. Texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va ob'ektni qo'riqlash bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarning bajarilishini ta'minlashi;

3.1.8. Ishlarni shaxsan bajarish.

3.2. Pudratchi quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. Buyurtmachi tomonidan mazkur shartnomaning 3-bandida ko'rsatilgan haq to'lash majburiyati bajarilmaganda, Pudratchi ishlarning natijasini ushlab turish huquqiga ega.

3.3. Buyurtmachining majburiyatlari:

3.3.1. Pudratchidan ishlar tugallanganligi haqida xabarnoma olgandan keyin 5 kun ichida yoki mazkur shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan muddat tugaganda, ishlarning natijasini ko'rib chiqish va qabul qilish, ishlarning natijasini yomonlashtiradigan shartnomadan chetga chiqishlar yoki ishlardagi boshqa kamchiliklar aniqlanganda, bular haqida Pudratchiga darhol xabar berish.

3.3.2. Ishlarning natijalarini qabul qilgan paytdan mazkur shartnomaning 3-bandida ko'rsatilgan hisoblashishlar tartibi bo'yicha ishlar uchun haq to'lash.

3.4. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

3.4.1. Har qanday vaqtda Pudratchining faoliyatiga aralashmagan holda u tomonidan bajariladigan ishlarning borish jarayoni va sifatini tekshirish.

3.4.2. Buyurtmachi ish natijasi o'ziga topshirilgunga qadar istagan vaqtda shartnomadan voz kechib, belgilangan bahoning buyurtmachi shartnomani bajarishdan voz kechganligi to'g'risidagi xabarnoma olingunga qadar bajarilgan ishlar qismiga mutonosib qismini Pudratchiga to'lash. Bunda buyurtmachi Pudratchiga shartnomaning bekor qilinishi tufayli etkazilgan zararni bajarilgan ishning bahosi bilan hamma ish uchun belgilangan baho o'rtasidagi farq doirasida to'lashi ham shart.

4. Shartnomaning bahosi va hisoblashishlar tartibi

4.1. Mazkur shartnomaning bahosi **150 355 000** (bir yuz ellik million uch yuz ellik besh ming) so'mni tashkil qiladi.

4.2. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga shartnoma bahosini to'lash bajaruvchining mazkur shartnomada ko'rsatilgan hisob-kitob hisobvarag'iga pul mablag'larini ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

5. Taraflarning javobgarligi

5.1. Pudratchi mazkur shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarish muddatini buzganligi uchun har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni etkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.2. Bajarilgan ishlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi Pudratchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

5.3. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan taraflarning javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi fuqarolik qonunchiligi me'yorlariga muvofiq qo'llanadi.

5.4. Neustoyka to'lash taraflarning ular oldida turgan majburiyatlarini bajarishdan yoki shartlarning buzishini bartaraf etishdan ozod etmaydi.

6. Fors-major xolatlari

6.1. Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va engib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. (Urush e'lon qilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiya, embargo, er qimirlashi, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar shular jumlasidandir.)

6.2. Bartaraf kilib bo'lmaydigan kuchlarning mavjudligi yoki amalda davom etayotganligini O'zbekiston Respublikasi Hukumatining shunga oid qarorlari yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan berilgan guvoxnomalari uning etarli darajadagi tasdig'i bo'lib hisoblanadi.

6.3. O'z majburiyatini bajarmagan taraf shartnoma bo'yicha majburiyatni bajarishga uning ta'sir ko'rsatishi yoki monelik qilishi to'g'risida boshqa tarafga imkon qadar tezda xabar berishi lozim.

7. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Mazkur shartnomani bajarishda yuzaga keladigan nizolar va kelishmovchiliklar taraflar o'rtasida imkon qadar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

7.2. Nizolarni taraflarning muzokaralari yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmagan taqdirda, taraflar kelishmovchiliklarni bartaraf etish borasida qonunchilikda ko'zda tutilgan sudgacha bo'lgan jarayonlarni amalga oshirilganlaridan so'ng ularni qonunda belgilangan tartibda Iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqishga topshiradilar.

8. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi

8.1. Ushbu shartnomaga har qanday kiritilgan qo'shimcha va o'zgartishlar yozma ravishda rasmiylashtirilib, har ikkala taraf imzolalanib, G'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tgandan so'ng haqiqiy kuchga ega bo'ladi.

8.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish taraflarning kelishuvi bo'yicha yoxud O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 01 noyabrda "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni hamda amaldagi qonun xujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha, etkazilgan zararlarni qoplash bilan amalga oshirilishi mumkin.

8.3. Buyurtmachi quyidagi hollarda shartnomani bekor qilishga haqli:

- Pudratchining aybi bilan ishlarning borishini sustkashlik bilan to'xtatib turilishi, ya'ni ushbu shartnomadagi ishlarning tamom bo'lish muddati bir oydan ko'pga oshib ketganda;

- Pudratchining shartnoma shartlarini buzishi natijasida loyihada ko'rsatilgan ishlarning sifati pasayganda.

8.4. Pudratchi qo'yidagi hollarda shartnomani bekor qilishga hakli:

- Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablar bo'yicha qurilish-montaj ishlarining borishini bir oydan oshadigan muddatga to'xtatib turganda;

- Buyurtmachi tomonidan keyinchalik ishlarni moliyalash imkoniyati yo'qotilganda.

8.5. Buyurtmachi va Pudratchining birgalikdagi qarori bo'yicha shartnoma bekor kilinganda, buyurtmachiga tugatilmagan qurilish topshiriladi, buyurtmachi esa Pudratchiga ular tomonidan aniqlangan bajarilgan ishlarning hajmi kiymatini to'laydi.

8.6. Shartnomani bekor qilishga qaror qilgan taraf boshqa tarafga yozma xabarnoma yuboradi.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

9.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishoniradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

9.2. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Yetkazib beruvchining manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Yetkazib beruvchining hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

10. Yakuniy qoidalar

10.1. Mazkur shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, ular faqat yozma shaklda tuzilib, taraflarning bunga vakolatli vakillari tomonidan imzolanib, G'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tgandan so'ng haqiqiy hisoblanadi.

10.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzildi ikkala nusxa aynan bir xil va teng kuchga ega. Taraflarning har birida mazkur shartnomaning bir nusxasi mavjud.

11. Taraflarning manzillari va bank rekvizitlari

«Ijrochi»

«SHOXRUZ 555» M.CH.J.
(Pudratchi tashkilot nomi)
Manzil: G'allaorol tumani
X/R: 20208000205215957001.

Bank: «Agro»bank Gallaorol

INN: 307347163.
MFO: 00128.
IFUT: 61110.

«Buyurtmachi»

Arnasoy tumani Xalk Talimi Bo'limi
(byudjetdan mablag' oluvchining nomi)
Manzil: Arnasoy t O.Vodiy KFY
sh/h*
100022860082017092100075031.
Bank nomi: Toshkent sh Markaziy bank
Bosh Boshqarmasi
MFO: 00014. STIR: 200331588.
IFUT: 97600.
G'aznachilik bo'linmasi nomi
O'z.Res. Moliya vazirligi yagona
G'azna xisob varag'i
G'azna h/v: 23402000300100001010.

MFO: 00014
G'aznachilik bo'linmasi STIRi: 201
122919.

Raxbar: 
M.O.:

M. Bobobekov

Raxbar: 
M.O.:

M. Nizomov.

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING
QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA

JY47680436

- 1.Loyihaning turi – shartnoma.
- 2.Loyihaning nomi – 150 355 000 (bir yuz ellik million uch yuz ellik besh ming) soʻmlik “Arnasoy tumani xalq talimi boʻlimiga qarashli 14-sonli oʻrta talim maktabni joriy taʼmirlash ishlarini bajarish”gi pudrat shartnomasi.
Buyurtmachi - Arnasoy tumani xalq talimi boʻlimi nomidan boʻlim mudiri M.Nizomov
Pudratchi – "SHOXRUZ 555" masʼuliyati cheklangan jamiyati nomidan Ustav asosida faoliyat yurituvchi korxonra rahbari Bobobekov Mahramqul Ibragimovich
- 3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana – “Arnasoy tuman xalq taʼlimi boʻlimi” 2022 yil 15 mart.
- 4.Loyiha boʻyicha taklif va eʼtirozlar:
Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Arnasoy tuman yuridik
xizmat koʻrsatish markazi
16.03.2022 yil



**ARNASOY TUMANI
XALQ TA'LIMI
BO'LIMI**

130200 Arnasoy tumani, Oqbuloq ko'chasi.
Tel.: (0372) 372-12-93, faks 372-11-84,
web-site:e-mail:arnasoy txtb@xtv.uz



**THE DEPARTMENT OF
PUBLIC EDUCATION OF
ARNASAY DISTRICT**

Oqbuloq street, Arnasay district,
(0372) 372-12-93, fax: (+998) 72 372-11-84
web-site:e-mail:arnasoy txtb@xtv.uz

2022-у. « 16 » *Март*

№ 01- 28

« _____ » _____ 2022 г.

МАЪЛУМОТНОМА

Арнасой туман халқ таълими бўлимининг Юридик ва бюджет ташкилотлари учун 14мактабнинг жорий тамирлаш учун берилган шартномасига adm.ijgo.uz тизимдаги хатоликлар туфайли QR-код қўйилмаганлиги сабабли қўлда имзоланди ва муҳр билан тасдиқланди. Ушбу шартномага 16.03.2022 йил юридик хизмат бўлими томонидан JY47680436 рақамли хулоса берилган ва юридик кучга эга.

Бўлим мудирини



М.Низомов

Ижроси Ш.Синдаров
Тел: 72-372-10-50

